

**Osiyo taraqqiyot banki va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki
ishtirokida amalga oshirilayotgan
“O‘zbekiston Respublikasida koronavirus COVID-19 infeksiyasiga qarshi
shoshilinch choralarni ko‘rish” loyihasi bo‘yicha**

Ma’lumotnoma

1. Hukumat qarori: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-apreldagi “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, budjet, bazaviy infratuzilma va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash uchun tashqi yordam mablag‘larini jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **4691-sonli Qarori** va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-iyuldagi “Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **6035-sonli Farmoni** hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi “Osiyo taraqqiyot banki va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki ishtirokida “O‘zbekiston Respublikasida koronavirus COVID-19 infeksiyasiga qarshi shoshilinch choralarni ko‘rish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **5129-sonli Qarori** hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi **PF-60-sonli Farmoni**.

2. Loyiha maqsadi: O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi hamda uning qoshidagi barcha muassasalar moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

3. Loyihaning umumiy miqdori va taqsimoti: 200,0 mln. AQSh doll. (*shundan, 100,0 mln. AQSh doll. OTB hissasi va 100,0 mln. AQSh doll. OIIB hissasi*).

AQSh dollari

T/r	Asosiy texnik-iqtisodiy parametrlar	Jami*	Moliyalashtirish manbalari		
			OTB qarz mablag‘lari	OIIB qarz mablag‘lari	Budjet mablag‘lari
1.	Loyihaning umumiy qiymati	221 527 227,43	100 000 000,00	100 000 000,00	21 527 227,42
2.	Kapital qo‘yilmalar summasi, jami:	221 527 227,43	100 000 000,00	100 000 000,00	21 527 227,42
<i>shu jumladan, komponentlar bo‘yicha:</i>					
2.1.	1-komponent: Texnika va jihozlarni xarid qilish	70 037 067,74	31 210 814,50	31 210 814,50	7 615 438,74
2.2.	2-komponent: Qurilish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash	87 062 373,86	38 867 131,19	38 867 131,19	9 328 111,48
2.3.	3-komponent: Tez tibbiy yordam maxsus avtotransport vositalarini xarid qilish	39 200 000,00	17 500 000,00	17 500 000,00	4 200 000,00
2.4.	4-komponent: Kadrlarni o‘qitish va malakasini oshirish	3 000 000,00	1 500 000,00	1 500 000,00	-
2.5.	5-komponent: Axborot-kommunikatsiya tizimlarini joriy etish	3 824 000,00	1 750 000,00	1 750 000,00	324 000,00
2.6.	6-komponent: Loyihani boshqarish va muvofiqlashtirish	11 135 267,20	5 537 795,00	5 537 795,00	59 677,2
2.6.1.	<i>Loyihani amalga oshirish guruhi</i>	<i>325 267,20</i>	<i>132 795,00</i>	<i>132 795,00</i>	<i>59 677,2</i>
2.6.2.	<i>UNOPS tashkiloti loyihasini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlari</i>	<i>10 750 000,00</i>	<i>5 375 000,00</i>	<i>5 375 000,00</i>	-
2.6.3.	<i>Loyiha bo‘yicha audit tadbirlari</i>	<i>60 000,00</i>	<i>30 000,00</i>	<i>30 000,00</i>	-

2.7.	Ko'zda tutilmagan xarajatlar	4 868 518,63	2 834 259,31	2 034 259,31	-
2.8.	Investitsiya davridagi moliyaviy xarajatlar	2 400 000,00	800 000,00	1 600 000,00	-

4. Loyiha rahbari: B. Dimetov (10 yildan ortiq tajriba / tayinlangan sana 2021-yil 11-sentabr).

5. Loyihani amalga oshirish guruhi xodimlar soni: 6 shtat birligi.

6. Qarz bitimi imzolangan sana: 2021-yil 31-dekabr (O'zbekiston Respublikasi va OTB hamda OIIB o'rtasida) // qo'shimcha bitimlar 2022-yil 16-dekabrda (OTB bilan) hamda 2022 yil 23 dekabrda (OIIB bilan)

7. Qarz bitimi yopilish sanasi: 2025-yil 31-yanvar

8. Loyiha yopilish sanasi: 2025-yil 30-iyun

9. Texnik-iqtisodiy hisob-kitobga asosan maqsadli ko'rsatkichlar:

T/r	Muassasalar	Ko'rsatkichlar	Maqsadlar
1.	Texnika va jihozlarni xarid qilish (jami: 204 ta muassasa)		
1.1.	Sanitariya-epidemiologiya qo'mitasi	1 ta muassasa	Xalqaro va milliy talablarga javob beruvchi milliy referens - laboratoriyalar
1.2.	Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	1 ta muassasa	
1.3.	Virusologiya ilmiy-tadqiqot instituti	1 ta muassasa	
1.4.	Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti	1 ta muassasa	
1.5.	Respublika OITSGa qarshi kurashish markazi	1 ta muassasa	
1.6.	Sanitariya-epidemiologiya qo'mitasining hududiy boshqarmalari	14 ta muassasa	Laboratoriya majmualarni biologik xavfsizlikning II darajasiga ko'tarish
1.7.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar OITSGa qarshi kurashish markazlari	14 ta muassasa	
1.8.	Respublika o'lat profilaktika markazi filiallari	3 ta muassasa	
1.9.	Sanitariya-epidemiologiya qo'mitasining tuman (shahar) bo'limlari	148 ta muassasa	Laboratoriya majmualarni biologik xavfsizlikning I darajasiga ko'tarish
1.10.	Respublika o'lat profilaktika markazi filiallarining bo'linmalari	6 ta muassasa	
1.11.	Hududiy yuqumli kasalliklar shifoxonalar	14 ta muassasa	Moddiy-texnik bazasini modernizatsiyalash
2.	Qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash (jami: 46 ta muassasa)		
2.1.	Sanitariya-epidemiologiya qo'mitasi	1 ta muassasa	Xalqaro va milliy talablarga javob beruvchi milliy referens - laboratoriyalar
2.2.	Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	1 ta muassasa	
2.3.	Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti	1 ta muassasa	
2.4.	Respublika OITSGa qarshi kurashish markazi	1 ta muassasa	
2.5.	Sanitariya-epidemiologiya qo'mitasining hududiy boshqarmalari	12 ta muassasa	Laboratoriya majmualarni biologik xavfsizlikning II darajasiga ko'tarish
2.6.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar OITSGa qarshi kurashish markazlari	9 ta muassasa	
2.7.	Respublika o'lat profilaktika markazi filiallari	2 ta muassasa	
2.8.	Sanitariya-epidemiologiya qo'mitasining tuman (shahar) bo'limlari	19 ta muassasa	

10. Yaratiladigan ish joylar soni: 5 000 ta ish joyi.

11. Loyihaning joylashuvi: O‘zbekiston Respublikasi 14 ta hududi va 205 ta tuman (shahar).

12. 2023-yil 15-dekabr holatiga o‘zlashtirish ko‘rsatkichi:

Loyiha doirasida umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichi jami 90,6 mln. AQSh dollarni tashkil etadi, jumladan, 2022-yilda jami 24,6 mln. AQSh dollari va 2023-yilda jami 66,0 mln. AQSh dollari (rejaga nisbatan 330%).

O‘zlashtirish ko‘rsatkichi quyidagilardan tarkib topgan:

– OTB qarz mablag‘lari hisobidan 2021-yil 3-dekabrda 12,25 mln. AQSh dollari tez tibbiy yordam avtotransport vositalarini xarid qilish uchun 2021-yil 27-sentabrdagi CERP/DC-G01LM1-2021/01-sonli shartnomaga asosan yetkazib beruvchiga to‘lab berilgan;

– OIIB qarz mablag‘lari hisobidan 2022-yil 13-iyunda 12,25 mln. AQSh dollari tez tibbiy yordam avtotransport vositalarini xarid qilish uchun 2021-yil 27-sentabrdagi CERP/DC-G01LM1-2021/01-sonli shartnomaga asosan yetkazib beruvchiga to‘lab berilgan;

– OTB qarz mablag‘lari hisobidan 2021-yil 24-dekabrda 100 000 AQSh dollari loyihani amalga oshirish guruhini saqlash va xodimlar ish haqlari uchun jalb qilingan (hisob raqamdan yechib olingan);

– OTB qarz mablag‘lari hisobidan 2023-yil 30-yanvarida 3,5 mln. AQSh dollari qurilish, rekonstruksiya, kapital ta‘mirlash va tegishli asbob-uskunalarini xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy choralar bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni qoplash maqsadida UNOPS tashkilotiga to‘lab berilgan;

– OIIB qarz mablag‘lari hisobidan 2023-yil 30-yanvarida 3,5 mln. AQSh dollari qurilish, rekonstruksiya, kapital ta‘mirlash va tegishli asbob-uskunalarini xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy choralar bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni qoplash maqsadida UNOPS tashkilotiga to‘lab berilgan;

– OTB qarz mablag‘lari hisobidan 2023-yil 4-dekabrda 29,5 mln. AQSh dollari qurilish, rekonstruksiya, kapital ta‘mirlash va tegishli asbob-uskunalarini xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy choralar bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni qoplash maqsadida UNOPS tashkilotiga to‘lab berilgan;

– OIIB qarz mablag‘lari hisobidan 2023-yil 4-dekabrda 29,5 mln. AQSh dollari qurilish, rekonstruksiya, kapital ta‘mirlash va tegishli asbob-uskunalarini xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy choralar bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni qoplash maqsadida UNOPS tashkilotiga to‘lab berilgan.

13. Bajarilgan ishlar bo‘yicha batafsil ma’lumot:

2021-yil 1-oktabrga qadar 1 000 ta tez tibbiy yordam maxsus avtotransport vositalarini xarid qilish choralari ko‘rish masalasi bo‘yicha:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 18-may kuni “Sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlarning samaradorligini oshirish hamda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishi 28-sonli bayonining 25-bandida:

- Sog‘liqni saqlash vazirligi, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda "O‘zavtosanoat" AJlarga **2021-yil 1- oktabrga** qadar tez tibbiy yordam xizmatining moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash maqsadida **Osiyo taraqqiyot bankining 35 mln. AQSh dollari** miqdoridagi imtiyozli kredit mablag‘lari hisobiga 1 000 dona “Volkswagen Caddy” tez tibbiy yordam maxsus avtotransport vositalarini xarid qilish yuzasidan zarur choralarni ko‘rish topshirig‘i berilgan.

Yuqoridagi 1 000 ta “Volkswagen Caddy” tez tibbiy yordam maxsus avtotransport vositalarini xarid qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi va “Jizzax avtomobil zavodi” MCHJ nomidan hamda tijorat vakili sifatida “Sergeli Avtotexxizmat” MCHJ o‘rtasida 2021-yil 27-sentabrda 35,0 mln. AQSh dollari miqdorida CERP/DC-G01LM1-2021/01-sonli shartnoma imzolangan.

Mazkur shartnomaga asosan “Jizzax avtomobil zavodi” MCHJ:

- 2021-yil 9-dekabrda 03/03-1535-sonli xati bilan Osiyo taraqqiyot banki tomonidan 2021-yil 7-dekabrda 12,25 mln. AQSh dollari;

- 2022-yil 21-iyundagi 02/02-448-sonli xati bilan Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki tomonidan 12,25 mln. AQSh dollari miqdorida mablag‘ kelib tushganligini ma‘lum qilgan.

Yuqoridagi shartnomaga asosan 2021-yilning dekabridan 2023-yilning noyabriga qadar “Jizzax avtomobil zavodi” MCHJ tomonidan jami **700 dona** "Volkswagen Caddy" (Cargo maxi) rusumli tez tibbiy yordam maxsus avtotransport vositalari Sog‘liqni saqlash vazirligiga yetkazilgan, jumladan, *2021-yilning dekabrda – 110 dona, 2023-yilning fevralida – 110 dona, 2023-yilning martida – 119 dona, 2023-yilning sentabrda – 153 dona, 2023-yilning oktabrida – 100 dona va 2023-yilning noyabrda – 108 dona.*

Shartnoma doirasida yetkazilmagan **300 ta** avtotransport vositalari 2024-yilning martiga qadar yetkazilishi rejalashtirilgan.

2022-yil 1-fevralga qadar loyiha texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqib, ekspertiza organlaridan ijobiy xulosalarni olgan holda tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish masalasi bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoniga (238 band) asosan laboratoriyalarni tashkil etish bo'yicha loyiha texnik-iqtisodiy asosini ishlab chiqish hamda BMTning loyiha xizmatlari boshqarmasini (UNOPS) loyiha texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishga va amalga oshirishga jalb etish belgilab o'tilgan. Ushbu qarorga asosan loyiha texnik-iqtisodiy asosini ishlab chiqish 2022-yilning mart oyi belgilab o'tilgan.

Loyiha texnik-iqtisodiy hisob-kitobini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun Birlashgan Millatlar tashkilotining loyiha xizmatlari boshqarmasiga (UNOPS) topshirishga va ushbu tashkilot bilan tegishli kelishuv imzolanishiga Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi 07/10-221-sonli topshirig'iga ko'ra ruxsat berilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari – investitsiya va tashqi savdo vaziri, hukumat komissiyasining raisi S. Umurzakovning 2022-yilning 15-aprelida 27-sonli bayoni rasmiylashtirilgan. Bayonda loyiha TIA sini ishlab chiqish va uni amalga oshirish uchun ixtisoslashtirilgan tashkilotni jalb qilish masalasi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati, investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda OTB, OIIB vakillari bilan birgalikda GOPA Worldwide Consultants (GOPA), Birlashgan Millatlar tashkilotining loyiha xizmatlari boshqarmasi (UNOPS), bolalar fondi (UNICEF), taraqqiyot dasturi (BMTD), OIV/OITS bo'yicha qo'shma dasturi (UNAIDS), aholi jamg'armasi (UNFPA) va boshqa tashkilotlar bilan qator muzokaralar o'tkazilgan va takliflar o'rganib chiqilgan. Takliflarni o'rganish natijalarida loyiha TIA sini ishlab chiqish va loyihani amalga oshirish bo'yicha eng munosib tashkilot sifatida UNOPS tashkiloti ma'qullangan va Sanitariya-epidemiologiya xizmati (Yusupaliyev) va UNOPS o'rtasida umumiy indikativ qiymati 10,75 mln. AQSh dollari miqdoridagi shartnomani 2022-yil 25-aprelga qadar imzolanishi belgilangan.

Loyiha texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun UNOPS tashkilotini jalb etish bo'yicha topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati va UNOPS o'rtasida kelishuv shartnomasi ishlab chiqilib, OTB ga ko'rib chiqish va ijobiy xulosa olish uchun 2021-yil 10-noyabr kuni yuborilgan hamda OTBning izoh va takliflari 2022-yilning 8-noyabr kuni olinganligi sababli (12 oy OTB tomonidan ko'rib chiqilgan) loyiha TIA si ishlab chiqilmagan, tegishli vazirlik va idoralar hamda ekspertizadan ijobiy xulosalar olinmagan, Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlatish uchun kiritilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi 07/10-221-sonli topshirig'iga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoniga (238 band) hamda tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo'yicha hukumat komissiyasi yig'ilishining 2022-yil 15-apreldagi 27-sonli bayoniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-

epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati va UNOPS o'rtasida umumiy qiymati 10,75 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan kelishuv shartnomasi ishlab chiqilib, xalqaro moliya institutlariga kelishish uchun 2021-yilning 10-noyabrda, 2022-yilning 27-mayida va 30-noyabrda yuborilgan.

2022-yilning 22-dekabrda xalqaro moliya institutlarining loyiha texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun UNOPS tashkilotini jalb etish bo'yicha ijobiy xulosalari berildi va 2022-yilning 23-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati va UNOPS o'rtasida umumiy qiymati 10,75 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan 23327-sonli kelishuv shartnomasi imzolandi hamda O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida 2022-yilning 24-dekabrda K0622449 raqami ostida hisobga olindi (2022-yil 27-dekabrda 05-16-2-14844-sonli xati).

Belgilangan texnik-iqtisodiy yig'ma parametrlariga asosan 2021-yilning iyun va iyul oylarida O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tomonidan 263 ta loyiha muassasalari xatlovdan o'tkazildi va nazorat-tahlil tadbirlari amalga oshirildi, xususan muassasalarning ehtiyoji aniqlandi va xarid qilinishi rejalashtirilgan asbob-uskunalar ro'yxati, muassasalarda qurilish, rekonstruksiya va kapital ta'mirlash ishlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan birlamchi parametrlar shakllantirildi.

Shakllantirilgan birlamchi parametrlarga asosan Sanepidqo'mita tomonidan loyiha texnik-iqtisodiy asoslari ishlab chiqilib, 2023-yilning 26-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya (Sanepidqo'mitaning 32-8/1749-sonli xati) va investitsiyalar, sanoat va savdo vazirliklariga (Sanepidqo'mitaning 32-8/1750-sonli xati) kelishish va ekspertiza qilish maqsadida kiritilishi ta'minlandi. O'rnatilgan tartibda o'tkazilgan amaliy ishlar yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2023-yil 25-noyabrda 02-62-2-14188-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 11-dekabrda 05/40-8864-sonli ijobiy xulosalari olindi.

Ushbu loyiha sog'liqni saqlash tizimini, xususan Sanepidqo'mita tizimidagi muassasalarni moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va tizimni nafaqat koronavirus COVID-19 infeksiyasiga qarshi balki boshqa xavfli yuqumli kasalliklarga (vabo, kuydirgi, meningit, rotavirus infeksiyalar, iersinioz va boshqalar) bardoshlilikini oshirish va tayyorlashga mo'ljallangan.

Ayni vaqtda UNOPS tashkiloti tomonidan tanlab olingan loyiha institutlari tomonidan jami 46 ta loyiha muassasalari qayta xatlovdan o'tkazilib, tegishli loyiha-smeta xujjatlari ishlab chiqilmoqda.